



The birth and formation of the concept of personality in psychology

Dosjonova Nilufar Rustam qizi

2nd year student, Bachelor
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Bakhtiyorova Munira Mansur qizi

2nd year student, Bachelor
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

ABSTRACT

The article tells about the concept of a person and the history of his development. The article cites a variety of scholars, their different perspectives on the individual, and the debates, as well as extensive information about the type of individual. In the summary you can learn about how to develop an individual.

Keywords:

Person, individual, philosophical-literary, clinical, purely experimental, psychopathy, extrovert, introvert, temperament, character.

Kirish: Odatda shaxs ijtimoiy fanlarning o'rganish predmeti bo'lib, ular insoniyat tarixida shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlarini, jamiyatning rivojlanish jarayonida inson hayotining ijtimoiy sharoitlariga bog'liq holda shaxsning o'zgarishi bilan aloqador masalalarning mohiyatini ochib beradi.

Shaxs muammosini tadqiq qilishga biologiya, kognitiv, ijtimoiy fanlar va falsafa fani murojaat qiladi. —„Shaxs“ kategoriyasi psixologiyaning eng muhim, tayanch tushunchasi bo'lsa, —„shaxs psixologiyasi“ bo'limi uning asosini tashkil etadi. Psixologiyaning bu sohani bilish har qanday mutaxassisga samaraliroq ishlash imkonini beradi. Shaxs psixologiyasi XX asrning birinchi o'n yilligida eksperimental fanga aylandi. Biroq nazariy tadqiqotlar ancha oldinroq amalga oshirila boshlangan. Shaxsni

o'rganish tarixida uchta asosiy davrni ajratish mumkin:

- falsafiy-adabiy;
- klinik;
- sof eksperimental.

Falsafiy-adabiy davr. Dastlab shaxs psixologiyasi muammolari faylasuf va yozuvchilar asarlarida o'z aksini topgan. Frantsuz faylasufi Eten de Kondilyak o'zining — „Sezgilar haqidagi traktat“ida shaxsni turli sezgi parchalaridan yig'ishga harakat qilgan. F.M. Dostoevskiy har bir kishi uchun xos bo'lgan —„yashirin odam“ haqida yozadi.. Uning fikricha, mazkur —„yashirin odam“ tashqariga chiqishga urinib ko'radi, shuningdek har bir kishining —„niqobi“ ham mavjud bo'lib uning haqiqiy qiyofasini yashirib turadi. „SHaxs-bu ijtimoiy tabiatga ega, o'z mohiyatiga ko'ra barqaror ijtimoiy aloqa va munosabatlari, o'zi

va boshqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kishining axloqiy hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan psixologik tavsiflarga ega kishidir",- deya R.S.Nemov o'z asarlarida aytib o'tgan. Falsafiy-adabiy davrdagi shaxs psixologiyasining asosiy muammolari uning axloqiy va ijtimoiy tabiatini, xatta-harakatlari va xulq-atvorini o'rganishga bag'ishlangan edi. Dastlabki ta'riflarga ko'ra shaxs o'z tarkibiga barcha xususiy narsalarni- uning biologiyasi, psixologiyasi, mol-mulki, xulq-atvori, madaniyati va boshqalarni oladi. Badiiy ijod, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarda bunday qarash to'liq o'z tasdig'ini topgan. Biroq psixologiya uchun bunday ta'rif juda kengdir.

Klinik davr. XIX asrning birinchi o'n yilligida shaxs psixologiyasi muammosi bilan ko'proq shifokor-psixiatrlar shug'ullanishgan. Ular birinchilardan bo'lib klinik sharoitlarda bemor shaxsini tizimli kuzatish olib borishga muvaffaq bo'lishgan, inson shaxsining tabiati to'g'risida umumilmiy xulosalar chiqarishgan. Klinik davrda alohida fenomen sifatida shaxs haqidagi tasavvurlar qisqartirib yuborilgan. Psixiatrlarning diqqat markazida bemor kishilarda kuzatilgan shaxs xususiyatlari turgan. Keyinchalik aniqlanishicha, sog'lom kishilarda kuchsiz ifodalangan xususiyatlar bemorlarda juda kuchli (gipertrofiya) holatida bo'ladi. SHifokor-psixiatrlarning shaxsiga bergan ta'rifi bilan normal, patologiyaga ega va aktsentuatsiyaga ega kishilarni ham tavsiflash mumkin. Bunday ta'riflar psixoterapevtik vazifalarni yechish uchun to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq normal shaxsning mohiyatini anglash uchun torlik qiladi.

Sof eksperimental davr. XX asrning birinchi o'n yilligida shaxsni o'rganish bilan professional psixologlar shug'ullana boshlashdi. Ular avvallari bilish jarayonlari va shaxs holatlariga alohida e'tibor berishgan edi. Bu sohadagi tadqiqotlarda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishila boshlandi. Biroq du davrda psixologiya fanining inqirozi yuz berdi. Bunga inson tabiatini o'rganishga atomistik qarashlarning kirib kelishi sabab bo'ldi. Mazkur yondashuv inson psixologiyasini jarayon va holatlarga bo'lishni talab qilardi. Unga ko'ra inson alohida

psixik funktsiyalarning yig'indisi bo'lib, ulardan shaxsni yig'ish va ijtimoiy xulq-atvorining kompleks shakllarini tushunish qiyin bo'ladi. SHaxsni eksperimental o'rganish Rossiyada A.F.Lazurskiy, angliyada G.Ayzenk va R.Kettellar tomonidan boshlab berilgan. Olimlar mavjud tadqiqotlarga eksperiment tusini berib, ishonchli ma'lumotlar olish, farazlarni aniqlik tekshirish, ular asosida tajribada tekshirilgan nazariyalarni yaratish uchun natijalarni tahlil qilishning matematik-statistik usullarini joriy etishdi. Eksperimental davrning eng muhim vazifasi normal shaxsni baholashning ishonchli va validlikka ega test metodlarini ishlab chiqishdan iborat. XX asrning 30-yillarini oxirida shaxs psixologiyasida tadqiqot yo'nalishlarining faol differentsiatsiyasi boshlandi. Natijada XX asrning ikkinchi yarmida shaxs psixologiyasida o'rganiladigan ko'plab yondashuv va nazariyalar vujudga keldi. Tadqiqot ob'ekti sifatida shaxs o'ziga xos murakkab va ko'p qirralidir. U o'zida konkret insonning borlig'ining o'zaro bog'langan jismoniy va ma'naviy mazmunini aks ettiradi. SHaxs insonning kechinma va xulq-atvorida namoyon bo'ladigan, boshqalar qanday idrok qilsa shunday ko'rinishlarning birlili va uzluksizligini ifodalovchi turli psixik tizimlardan iborat deb qaraladi. Ko'p hollarda shaxs ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zlashtirib borilgan ijtimoiy va hayotiy muhim sifatlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Hozirda shaxsning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, mualliflar turli metodologik nazariyalarga asoslanishadi. Biroq bir xil mazmunga ega va to'liq ta'rif berish imkoni yo'q. Olport adabiyotlar tahlili asosida —„shaxs”ning ellikdan ortiq ta'rifini aniqladi. Ma'lumki kundalik turmushda „individ” „shaxs” „odam” kabi turli tushunchalar qo'llaniladi. Ammo bular o'z navbatida bir-birlaridan farq qiladi. Individ tushunchasi insoniyat turiga mansub alohida odamni aks ettiradi, u ayni paytda ham tabiat, ham jamiyatga tegishli bo'lganligi sababli ham, —„organizm”, —„shaxs” degan tushunchalar bilan qayd etiladi. B.G.Ananev individ tushunchasining mohiyatini to'la ochib berish uchun inson tabiatiga xos bo'lgan ijtimoiy va biologik xususiyatlarni bir butun holda qo'llashga muvaffaq bo'lgan. Uning fikriga ko'ra —„Individ- alohida, yakka holda

qayd etilgan, u yoki bu usullarga asoslanib ajratib olingan predmet, har bir o'ziga xos mavjudot, o'z holicha mustaqil yashovchi tirik organizm, insoniyat jamoasidan farqli o'laroq alohida inson shaxsi". —„Inson individi tushunchasi faqatgina insonlik turiga mansublikni ifodalaydi va o'z ichiga hech qanday aniq ijtimoiy va psixologik xarakteristikalarni olmaydi". SHunday qilib, „indivd" tushunchasi uning bo'linmasligi, yaxlitligi, alohida sub'ektga xosligi, alohida tabiiy mavjudotligi, uzoq davom etgan taraqqiyot mahsuli, individual sifatlarning tashuvchisi ekanligini ifodalaydi.

SHaxs eng ko'p mazmunli tushunchalardan bo'lib, uning bunday ko'pmazmunligi tushuncha bilan emas, balki uni izohlash bilan bog'liq nazariyalarga aloqadordir. A.N. Leontev shunday yozadi:„SHaxs individga teng emas; bu maxsus xususiyat o'z tabiatiga ko'ra individ tomonidan jamiyatda, u jalb qilingan ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zlashtirib olinadi". SHaxs tushunchasi biz tomonimizdan odamga nisbatan uning rivojlanishidagi malum bosqichlaridan boshlab qo'llaniladi. Individning ibtidosi esa embriogenezdand boshlanadi. Go'dak kattalar bilan munosabatda bo'lmaguncha, ijtimoiy muhitga to'la qo'shilmaguncha shubhasiz individ, hali shaxs emas, u shaxsning shakllanish jarayonida namoyon bo'la boshlaydi. —Individ tushunchasi kabi shaxs tushunchasi ham sub'ektning yaxlitligini ifodalaydi, u alohida xususiyatlar yig'indisi emas, yaxlit bir butun tizimdan tashkil topgan tuzilmadir. SHaxs esa genotipik jihatdan shartlangan, bo'linmas jihat emas, shaxs bo'lib tug'ilmaydi, shaxs sifatida shakllanadi. K.Obuxovskiyning fikricha esa —„SHaxs" — odamning ijtimoiy tarixiy jihatdan shartlangan psixologik xususiyatlari tuzilmasi bo'lib, uni yaxshi bilish xatti-harakatlarini oldindan bilish (bashorat qilish) va tushuntirish imkonini beradi. SHunday qilib shaxs tushunchasi yaxlit insonning individual qobiliyatlari va ijtimoiy rollarning bajarilishi birligini ifodalaydi. („Shaxs psixologiyasi" D.Oribboyeva, Namangan-2019, 3-11-18-varoqlar)

Ijtimoiy psixologiya fanining jahon psixologiyasida shaxsni o'rganish borasidagi nazariyalar 3 ga b'olinadi:1)Biogenetik

2)Satsiogenetik 3)Psixogenetik. Biogenetik nazariyaning negizida yetilish bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyotini ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh omili biologik determinantlarga (aniqlov-chilarga) qaratiladi va ularning mohiyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar keltirib chiqariladi. Taraqqiyot jarayonining o'zi biologik etilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va Gekkellar kashf qilishgan, biogenetik qonuniyat fanning taraqqiyoti nazariyani tashkil qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq fanning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, biologik qonunga ko'ra shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyatni tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya edi. Biogenetik nazariyaning yirik namoyondalaridan bo'lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb "rekapitulasiya qonuni"ni (filogenezni qisqacha takrorlanishini) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogeneznining muhim bosqichlarini takrorlaydi. Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis "konstitution psixologiyasi" (inson tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs tipologiyasi negizida bir qancha biologik omillarni (masalan tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan psixologik xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshida sikloid toifasiga xos (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta barqaror), ikkinchi uchida shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminni u shaxs rivojlanishi davriga ko'chirishga harakat qiladi, natijada o'smirlarda sikloid xususiyatlari (o'ta qo'zg'aluvchanlik,

tajovuzkorlik, affektiv tabiatlilik, ilk o'spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari) bo'ladi degan xulosa chiqaradi. Biogenetik nazariyaning namoyondalari amerikalik psixologlar A.Gezell, S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga asoslanib ish ko'radilar va bu jarayonda muvozanat, integrasiya va yangilanish sikllari o'zaro o'rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar. Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydni shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda u jinsiy maylga (libidoga) bog'liqdir.

Biologik nazariyaga qarama-qarshi bo'lgan nazariya sosiogenetik nazariya hisoblanadi. Sosiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shartsharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. G'arbiy Evropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri bu roller nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatlarida o'zgalalar bilan munosabat muloqot o'rnatishda sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazariyaning tarafdorlari E.Torndayk va B.Skinnerlar hisoblanadi. K.Levin tomonidan tavsiya qilingan "fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyatni kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra, individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi

ishtiyoq (intilish) maqsadlar bilan boshqarilib turiladi, va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi. Psixologiyaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lishi emosiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta'kidlaydi. 1)0-1 yosh (atrofdagi odamlarga ishonch va ishonchsizlik) 2)1-3 yosh (Muxtoriyat, tobelik, o'ziga shubha, uyat kabilar sezilishi) 3)3-6 yosh (tashabbus, o'ziga ishonch, aybdorlik tuyg'usi, faollik va passivlik ortadi) 4)6-12 yosh (mehnatsevarlik, to'laqonli emaslik tuyg'usi) 5)13-18 yosh (tengdoshlar o'rtasida birdamlik, rollarning aralashuvi) 6)Barvaqt ulg'ayish (yaqinlik, izolyatsiya) 7)Ulg'ayganlik (generativlik, stagnatsiya) 7)Yetilganlik (barqarorlik va umidsizlik) kabi har bitta davrda rivojlanish natijalari seziladi. („Rivojlanish psixologiyasi“, Z.T.Nishanova, Toshkent-2019, 84-85-86-varoqlar)

Kognitiv yo'nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, J.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin. J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellekt davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik va adaptasiyadan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi. Sobiq sovet psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu masala bilan shu?ullanuvchilar safi kengayib bordi. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai,

rivojlanishning o'ziga xosligi bo'yicha yondashuvda muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va undan so'ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir necha bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik ta'rif berish nuqtai-nazaridan yondashishni quyidagi nazariya va yo'nalishlarini ko'rsatib berish mumkin.

Umuman olganda biz yuqoridagi ma'lumotlar orqali shaxsning paydo bo'lish tarixini bilib olgan bo'lsak endi shaxsning psixologik xususiyatlariga diqqatimizni qaratamiz. Psixologiyada shaxs o'zining yo'nalganligi va qobiliyati bilan xarakterlanadi. Yo'nalganligi deyilganda, odam ehtiyojlari, qiziqishlari, istaklari, moyilligi, e'tiqodi, orzulari va dunyoqarashi tushuniladi. Zamonaviy, madaniyatli kishilarning qiziqishlari turli-tuman bo'ladi. Qiziqishlar yoshga qarab o'zgarib boradi. Uch yoshdan besh yoshgacha bo'lgan sog'lom bolalarda hamma narsani bilishga qiziqish yaqqol ifodalangan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning savollari „Bu nima, nega, nima uchun?“ dan iborat bo'ladi. Maktabgacha yoshda o'yinchoqlar va mazmunli o'yinlarga qiziqish uyg'onadi. Xuddi shu davrda bolada rasm solish, jonli tabiat va hayvonlarga qiziqish paydo bo'ladi. O'qishga va ayrim fanlarga (matematika, musiqa, rasm solish, she'r to'qish) qiziqish umuman ancha erta rivojlanadi. O'zga jinsga qiziqish (mayl) 12—15 yoshdan boshlab rivojlanadi. Buyuk shaxslar aql-zakovati va ilmi bilan, ko'pincha, avliyo darajasigacha yetgan bo'ladi. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Imom Buxoriy kabi allomalarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Har bir odamning dunyoqarashi ko'proq uning biror maqsadga intilishi, tarbiyasi, orttirgan bilimlari va hayot tajribasiga bog'liq. Ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar kishining dunyoqarashi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Agar ular dunyoqarashi jamiyatda kechayotgan salbiy jarayonlarga mos kelmasa va shunday bo'lsa-da, bu jarayonlar ijobiy deb tan olinsa, bu holat shaxsning jamiyat va atrofdagilarga bo'lgan

munosabatini butunlay o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun ham buyuk shaxslar (Cho'lpon, Fitrat va boshqalar) o'z zamonasining qurboni bo'lishgan. Ko'pchilik olimlarning yutuqlarida shaxsi muhim ahamiyatga egaligi ilm-fan rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi aytib o'tiladi. Har qanday odam, u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, shaxs bo'lib kamol topishi kerak. Shaxsning kamol topishida qobiliyat va iste'dodning ham ahamiyati katta. Qobiliyat muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan individual xususiyatdir. Odam qobiliyatli bo'lib tug'ilmaydi, balki yetishadi. Ilk bolalik davridan boshlab odamda nimagadir qobiliyat nishonalari bo'ladi, nimagadir esa bo'lmaydi. Buni ota-ona darrov ilg'ab olib uning qiziqishini to'g'ri yo'naltirsa, keyinchalik bola buyuk shaxs bo'lib yetishishi mumkin. Alisher Navoiydagi she'riyatga bo'lgan qiziqish ilk bolalik davridan ilg'ab olingan va unga har tomonlama ko'mak berilgan. Natijada, Hazrat Navoiy buyuk shaxs bo'lib yetishdi va she'riyat sultoni degan nomni oldi. Demak, qobiliyatni taraqqiy ettirish zarur. Bordi-yu qobiliyatning nishonasi bo'lmasa, uni rivojlantirib bo'lmaydi. Masalan, skripkachi bo'lish uchun bir emas, bir necha qobiliyatga ega bo'lish lozim. Skripkachi maromni sezishi, musiqiy va kinestetik xotirasi bo'lishi, qo'l barmoqlari mayin va aniq harakat qilmog'i lozim. Bunga yana musiqiy did, hissiylik va ko'pgina boshqa qobiliyatlar qo'shiladi. Ana shu xususiyatlar bo'lganda, sanab o'tilgan barcha qobiliyatlarni o'qish va mashq qilish jarayonida rivojlantirish mumkin. Chunonchi, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, al-Farg'oniy, Bobur, Kamoliddin Behzod, Forobiy, Rudakiy, A.S. Pushkin, Mosart, Shekspir, Paskal, Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo kabi allomalarda qobiliyat va iste'dod juda erta, ya'ni bolalik davridan hayratlanarli darajada rivojlangan. Lekin aksariyat olimlar, ixtirochilar va davlat arboblarning iste'dodi yetuk yoshda namoyon bo'ladi. Shaxsga ta'rif bera turib, biz buyuk allomalarda talant kurtaklari erta yoshdan boshlab nish ura boshlashi haqida aytib o'tdik. Shu yerda shaxs bilan bog'liq yana bir qiziq muammo haqida so'z yuritishni lozim deb topdik, ya'ni buyuk shaxs (dohiy)larning ruhiy

nuqsonlari to'g'risida. Psixopatiya alomatlari bo'lgan buyuk shaxslar haqida ilmiy adabiyotlarda turli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Psixopatiya - bu shaxsning patologik o'zgarishi bo'lib, uning shakllanishida tug'ma omillarga katta urg'u beriladi. Shu borada iqtidor bilan ruhiy nuqsonlar orasidagi bog'lanishni aniqlashga 1925-yili rus tadqiqotchisi G.V.Segalini ham harakat qilgan. U eng buyuk shaxslarning hayoti va ulardagi ruhiy nuqsonlarni o'rganib chiqqan. Muallifning fikricha, ruhiy sog'lom kishilarda iqtidor sog'lom miya tomonidan „bosib“ turiladi va talantning „otilib“ chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Ruhiy nosog'lom shaxslarda esa bunday to'siq yocq va talant bema'lol o'zini to'la namoyon qila oladi. Tadqiqotchi o'z fikrini davom ettira turib, quyidagi xulosada to'xtaladi: *buyuk kishilarning genida ikkit komponent mavjud bo'lib, ulardan biri uning ajdodlaridan o'tgan iqtidor bo'lsa, ikkinchisi ruhiy nuqsondir.* Bunday irsiy buzilishlar buyuk shaxslarning o'zida kuzatilmasa-da, ularning yaqinlari (akasi, ukasi yoki singlisi)da kuzatilgan. Masalan, Gegel, Didro va Shumanning singillari, L.Tolstoy, Gyugo, Feyerbax va Uspenskiylarning ukalari ruhiy kasal bo'lgan. G.V.Segalinning fikricha, buyuk shaxslarning farzandlari aksariyat hollarda aqli past va mhiy nuqsonlarga boy bo'lishadi. Masalan, Bax, Shuman, Tasit, Mendelson, Gyotening o'g'illari va Mark Tvenning qizi mhiy kasal bo'lgan. Tadqiqotchilar yana bir qiziq, umuman olganda, hammaga ma'lum bo'lgan bir taxminni o'rtaga tashlashadi. Ba'zida buyuk shaxslar sog'lom bo'lgan taqdirda ham ular o'z talantlarini ro'yobga chiqarish uchun aroqxo'rlikka ruju qo'yishgan. Haqiqatan ham eng jozibali she'rlar va kashfiyotlar mast holda yaratilganligini ko'pchilik biladi. Go'yoki aroq talantni bosib turgan to'siqni olib tashlaydi va buyuk shaxsning miyasida paydo bo'lgan olamshumul fikrlarni ro'yobga chiqaradi.

1. Ekstravertlar. Ular juda dilkash, his-tuyg'ulari tashqariga yo'nalgan, sir-sanoatlarini boshqalarga yoyib yuradigan va odamlar bilan muloqotda bo'lishni xush ko'radigan insonlardir. Ular uchun birovlar bilan

muloqotda bo'lish juda yoqimlidir, ular xushchaqchaq, quvnoq, tez qo'zg'aluvcchan, serjahl va jizzaki shaxslardir. Ular kelajakka optimizm bilan qarashadi, o'ta ishchan va faol bo'lishadi, lekin sir saqlay olishmaydi, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olishmaydi, jahli chiqsa tajovuzkor bo'lib qolishlari mumkin. Jiddiy ishlarga, ayniqsa, uzoq vaqt davom etuvchi ishlarga ularni sherik qilishda ehtiyotkorlik kerak.

2. Intravertlar. O'ta kamgap, muloyim, uyatchan, his-tuyg'ulari ichkariga yo'naltirilgan shaxslar. Ularning sirlarini bilib olish juda qiyin, darrov muloqotga boravermaydi, qaysi bir jamoada suhbatlarga aralashib qolsa kam so'zlaydi yoki indamay o'tirishni xush ko'radi. O'z xatti-harakatlarini tahlil qilib yuradi. Hammaga ham qo'shilavermaydi, do'stlari kam bo'ladi. Qilinishi kerak bo'lgan ishlarni yaxshilab o'ylab oladi, keyin rejasini tuzadi, uning biror qarorga kelishi qiyin, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladi, uning jahlini chiqarish ham qiyin. Axloqiy me'yorlarga amal qiluvchi bu shaxslarda optimizmga qaraganda pessimizm ustunlik qiladi.

Ana enda temperament va uning tiplari haqida yoritib o'tamiz. Temperament odamning tevarak-atrofdagi voqealarga munosabati va hissiyotining ayrim xususiyatlarini belgilab beradi. Temperament ong, xotira, aql-zakovat va qobiliyatni aks ettirmaydi. Shu bois ham barcha temperament vakillari orasida iqtidorli va iqtidorsiz, ilmi hamda ilmsiz, vijdonli va vijdonsiz kishilarni uchratish mumkin. Temperamentning to'rt tipi ma'lum: sangvinik, flegmatik, xolerik va melanxolik.

Quyida ularning har biriga alohida-alohida ta'rif berib o'tamiz.

Sangviniklar — chaqqon, tirishqoq, mehribon, ta'sirchan kishilardir. Ular tevarak-atrofga tez moslashadi. Reaksiyalari yetarlicha kuchli yoki o'rtamiyona bo'ladi. Ular bilimni tez va osongina o'zlashtirsalar-da, hammavaqt ham puxta egallamaydilar. Muomalada ular ko'proq shirinsuxan, gapdon odamlardir. Sangviniklar ishga osongina berilib ketib, jadal ishlashga qodir bo'lishadi, lekin muntazam ravishda mehnat qilishga ancha qiynaladilar. Shu bilan birga ular tirishqoq va faol bo'ladi, boshqalar

bilan osongina muloqotga kirishadilar. Sangvinik temperament, ayniqsa, bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Flegmatiklar sangviniklarga qaraganda birmuncha vazmin kishilardir. Ularda shoshmaslik, vazminlik ancha barqaror boladi, murakkab hayotiy vaziyatlarda kamharakatlilik kuzatilsa-da, qo'yilgan maqsadga erishishda birmuncha barqaror, bir so'zli va dadil bo'lishadi. Bilimlarni sekinroq o'zlashtirsalar ham, lekin puxta egallaydilar. Agar sangvinik alangaga o'xshatilsa (u tez yonib, tezda so'nadi), flegmatikka sekin va uzoq yonadigan alanga xos bo'ladi. Biror narsaga tez javob qilish kerak bo'lsa, flegmatiklar, ko'pincha, vaqtni boy beradilar. Bunda sangviniklar ulardan ustun keladi. Qat'iylik, iroda va sabr-toqat talab qilinadigan ishlarda esa flegmatiklar ustun keladi.

Xoleriklar his-hayajonga beriluvchi odamlardir. Ularning o'ziga xos xususiyati jizzakilik va beqarorhkdir. Xoleriklar faol, ishchan va to'xtovsiz reaksiyali odamlardir. Ular bir maromda ishlay olishmaydi, goh g'ayrat bilan, goh imillab ishlashadi. Shuning uchun ham ehtiyotkorlik, sabr-toqat va chidam talab qilinadigan vaziyatlarda xoleriklar qiyin ahvolga tushib qolishlari mumkin.

Melanxoliklar g'amgin, jur'atsiz va ma'yus kishilardir. Salga charchash, biror ishga yetarlicha jur'at etmaslik, o'z fikrlari va istaklarini qondira olmaslik ular uchun xosdir. Melanxoliklar, ko'pincha, arzimagan qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar, ularga qarshi kurashdan voz kechadilar. Sangviniklar va flegmatiklar esa qiyinchiliklarni oson yengishadi, xoleriklar ularni hatto yo'q qilib yuboradi. Melanxoliklarda ijobiy his-tuyg'ulardan salbiy his-tuyg'ular ustunlik qiladi. Baxtli voqealarga qaraganda, ularga noxush voqealar ko'proq ta'sir qiladi. Shuning uchun ham ular doimo tushkun kayfiyatda yurishadi. Ular zaif va sust kishilardir.

„Temperament“ va „xarakter“ tushunchalari bir-biriga yaqin turadi. Xarakter shaxsning muhim hamda o'ziga xos sifatiy tomonidir. Ayni paytda, shaxsning ayrim xususiyatlari ham

xarakterga, ham temperamentga aloqador bo'lishi mumkin. Xarakter shaxsning yo'nalganligi, irodasi va faoliyati bilan uzviy bog'langandir. Xarakterning ko'p sonli tasniflari mavjudligiga qaramasdan, uning umum qabul qilingan tasnifi hanuzgacha yo'q. Xarakterning xususiyatlari juda ko'pdir. Uning uchun qat'iyatlilik, shijoatlilik, tirishqoqlik, vazminlik, dovyuraklik, jasorat va aksincha, jur'atsizlik, qolrqoqlik, qat'yatsizlik, gumonsirash kabi xususiyatlar xosdir. Insonning individual xususiyatlarini yetarlicha aks ettiruvchi xarakterning umum qabul qilingan tasnifi yo'qligidan, odatda, xarakterga baho berish uchun unga xos boigan eng muhim belgilarni shunchaki sanab o'tishdan foydalaniladi. Agar temperament tug'ma xususiyat bolsa, xarakter ko'p jihatdan tarbiyaga va kishining hayot tajribasiga aloqador bo'ladi. Xarakterni shakllantirishda tarbiya, ta'lim berish va oilaning tutgan o'rnini ham eslatib o'tish joizdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak „Shaxs“-ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odamdur. („Psixologiyadan izohli lug'at“ M.G.Davletshin, M.A.Abdullajonova, Farg'ona-2006, 50-varoq) Bizning fikrimizcha eng birinchi navbatda shaxs tabiat ichida o'zining muloqot madaniyati va onggi bilan hayvonot dunyosidan ajralib turuvchi tuzilmadir. Biz yuqorida shaxsning kelib chiqish tarixidan ya'ni dunyoga kelishidan to uning shakllanish jarayoniga qadar bo'lib o'tadigan fiziologik, biologik va asosiysi psixologik jihatlarini bilib oldik desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bunda yana bizning yutug'imiz shundaki, kitobxonlarga go'yoki yoyilib yotgan ma'lumot durlarini bir ma'naviy sandiqqa joyladik va ularning shaxs rivojlanishidagi bilim, ko'nikma va malakalarini yanada oshirdik. Hech ikkilanmasdan ayta olamanki bu ular uchun tayyor ma'naviy ozuqa bo'ldi. Ular qatori o'zim ham buyuk olimlar hayotidagi qiziqarli faktlarni bilib oldim va ilmga chanqoq o'zim qatori yoshlarga ham ilindim. Bu hali hammasi emas. Axir qadimdan ota-bobolarimiz: „Bilganlaringni dengizdan bir tomchi deb bil!“, -deya bejizga aytishmagan. Biz ham shaxs

sifatida shuni aniq ayta olamizki, har bitta inson o'z yurtida rivojlanib borar ekan, ma'lum belgilangan tartib va qoidalar asosida to'g'ri yo'ldan borishi hamda ularga amal qilgan holda etika-estetika kabi go'zal did sohib va sohibalari bo'lishlari hamda komil inson sifatida Abroxan Maslouning „Ehtiyojlar piramidasi“dagi eng yuqori cho'qqisi bo'lmish autoaktualizatsiyaga erishishlari lozim deb o'ylaymiz. Buning uchun har bitta shaxs yuqoridagilar bilan bir qatorda axloqiy madaniyatga ega bo'lmog'i darkor. Xususan biz shaxsning axloqiy madaniyati deganda - umumiy axloqiy tamoyillarni bilish, ularni chuqur his etilgan qarashlariga aylantirish, xatti-harakatlarning eng munosib shaklini qo'llay bilishi, uning har bir elementini o'zlashtirishini ko'z oldimizga keltiramiz. Shaxsning axloqiy madaniyatining oliy darajasini esa „axloqiy donolik“ deb, axloqiy faoliyatining optimalligini va uyg'unligini ta'minlab bera olish, har qanday vaziyatda ham munosib xatti-harakat qila olish deb ta'riflash bo'ladi. („Falsafa“ F.Qulmatov, Q.Razzaqov, Jizzax 2019, 37-varoq) Biz shaxsni o'rganar ekanmiz unda psixodiagnostikada mavjud bo'lgan testlardan foydalansak bo'ladi. Bunda avvalo shaxs testlari aslida nima ekanligini bilib olamiz. Shaxs testlari-(ing.test-tekshirmoq)-psixodiagnostika metodlari. Uning yordamida shaxsning turli individual tomonlarini qadriyatlarini, munosabatlari, emotsional, motivatsion hamda shaxslararo xususiyatlari, xulq-atvorining shakllari o'lchanadi.

Psixodiagnostikada shaxs borasidagi „Men kimman“ metodi, temperamentni aniqlash bo'yicha Ayzenk va Kettellar so'rovnomasi, Fraygburg savolnomasi yordamida Shaxs xususiyatlarini o'rganish metodikasi, Karl Yungning Xarakter tipini aniqlash metodikasi, Shmishek testi orqali o'smirlarning xarakter aktsentuatsiyasini aniqlash, shaxsning qadriyatlar yo'nalishini diagnostika qilish bo'yicha Rokich metodikasi, Seninning „Qadriyatlar yo'nalishlari so'rovnomasi“, shaxs xususiyatlari va uning tashqi ob'ektlarga nisbatan holatlari mazmunini o'rganish bo'yicha esa proektiv metodikalardan „Uy-daraxt-odam“ rasmi testi, „Mavjud bo'lmagan hayvon testi“, Tugallanmagan gaplar,

„Avtoportret“ testi, „Rorshax siyoh dog'lari“ proektiv metodikasi, „Rozenzveyg frustratsiya testi“ proektiv metodikasi, „Lyusher ranglarni tanlash testi“ proektiv metodikasi, shaxslararo munosabatlarni aniqlash uchun esa sotsiometriya, referentometriya metodikalaridan „Harakatdagi tanlov“ metodikasi, „Siz qanday odamsiz?“ so'rovnomasi, „Oila rasmi“, „Jil film testi“ proektiv metodikasi kabilardan foydalanish ayni muddao bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus Ta'lim vazirligi Namangan Davlat Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi "Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi" fanidan MA'RUZA MATNI Namangan-2019 Tuzuvchi: D.Oribboyeva - o'qituvchi
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus Ta'lim vazirligi F.I.Xaydarov N.I.Xalilova Umumiy Psixologiya (darslik) Toshkent -2009
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus Ta'lim vazirligi Zarifboy Ibodullayev Tibbiyot Psixologiyasi Cholpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2012
4. Falsafa P.Qulmatov , Q.Razzaqov Jizzax-2019
5. Psixologiyadan izohli lug'at M.G.Davletshin, M.A.Abdullajonova Farg'ona 2006
6. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik Psixologiya Z.T.Nishanova, N.G.Komilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Toshkent-2019
7. Psixodiagnostika va Eksperimental Psixologiya Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Atabayeva, Z.Qurbonova Toshkent-2018